JAMIYAT VA EKOLOGIK MADANIYAT UYG'UNLIGINING KOSUBSTANTSIONAL ASOSLARI

Sultamuratov Begis Utebaevich
Urganch davlat universiteti Mustaqil izlanuvchisi
Email: begissultamuratov@gmail.com;
ORCID: 0009-0007-8695-0048;

"Jamiyat – tabiatning bir qismi, ya'ni ijtimoiy borliq bo'lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan juda ko'plab munosabatlar yig'indisi, degan turlicha ta'riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boriuvchi murakkab tizimdir" [1]. Falsafa fanlari doktori, professor M.S.Xajievaning ushbu fikridan kelib chiqsak, jamiyat tabiatning tarkibiy qismi, tabiatga xos xususiyatlar, masalan, uyg'onish, o'sish, hosilga kirish, hosildan to'xtash, so'nish kabilar jamiyatga ham xosdir. Tsivilizatsiya nazariyasining asoschilari va yirik namoyondalari O.Shpengler va A.Toynbi jamiyatga biorganik mavjudot sifatida yondashib tug'ilish, o'sish, kamolga yetish, keksayish va o'lish xos, degan g'oyani ilgari surgan edilar [2]. Ushbu yondashuvlardan xulosa qilish mumkinki, tabiat qonunlari, ijtimoiy taraqqiyot talablariga moslashgan tarzda, jamiyat hayotida ham o'z in'ikosini topadi. O.Shpengler o'zining yuqorida keltirilgan tadqiqotining birinchi bobini "Kelib chiqish va landshaft" deb atagan va birinchi betdayoq yozadi: "Kechda quyosh botayotganda gullarga qarang, ular birin-ketin yopinadi. Yerga sirli, mudroq va ko'rona tarzda bandi bo'lgan ushbu hol oldida sizni qandaydir g'alati tuyg'u chulg'ab oladi. Osuda o'rmon, sokin adir, qotgan daraxtlar va shoxlar. Ular bilan faqat shamol o'ynaydi. Ojiz chivin esa ozod, u so'nayotgan ufq nurlaridan raqsga tushadi, u qaerga xohlasa shu yerga uchadi" [3]. Keyin faylasuf ushbu tasviridan kelib chiqib daraxt, o'simliklarga "kutish erki, ixtiyor yoki tanlash berilmagan", ammo hayvonlarga tanlash erki berilgan. "Erk va bog'liqlik o'simlik va hayvonot dunyosi o'rtasidagi eng chuqur

va hal etuvchi farqdir" [3], degan fundamental, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi substantsional ahamiyatga ega farqni ta'kidlab ko'rsatadi. Demak, jamiyatga tanlash erki berilgan, ushbu fenomen uning barcha tomonlariga, faoliyatiga, yashash tarziga, shu jumladan, ekologik munosabatlariga ham ta'sir etadi. Ekologik munosabatlar va ekologik madaniyat jamiyat tomonidan ixtiyoriy tanlanadigan, o'z ehtiyojlariga muvofiq tashkil etiladigan, yo'lga qo'yiladigan va tadbiq etiladigan ixtiyoriy munosabatlar mahsulidir.

O.Shpengler o'simliklar va hayvonot dunyosi landshaft hamda makrokosm bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Kosmosda ritm va fasliy o'zgarish hukmron. Kosmosga taalluqli barcha narsalar qo'shaloqlik va keskinlik mavjud. "His-tuyg'u va narsalar, Men va Sen, sabab va oqibat, narsa va sifat, hamma narsaga qo'shaloqlik va keskinlik xos, qaerda yengillik bo'lsa shu yerda mikrokosmga taalluqli va uyqu bilan yakunlanuvchi charchash paydo bo'ladi. Uyqudagi va keskinlikdan xoli kishi esa faqat o'simlik kabi mavjuddir" [4]. Keyin faylasuf mikrokosm bilan makrokosm o'rtasidagi uyg'unlikni ritm bilan bog'laydi. Makrokosm ritmi mikrokosmlar (odamlar)ga yo'nalish, turtki, kuch beradi, agar kishi ushbu ritmni ilg'ash imkoniga ega bo'lmasa, o'zini beorom, faol sezmasa, uning o'simlik va hayvonot olamidan farqi kam. Mazkur uyg'unlikdan, dialektik bog'liqlikdan kelib chiqsak, makrokosm (bu ibora Platondan olingan. Platon makrokosmni "butun" deb ham atagan), butun odamga, qismga yo'nalish, turtki beradi, uni faollashtiradi. O.Shpengler nazarda tutgan beoromlik, ritm va ularni anglash, borliqqa tadbiq etish imkoni faqat insonda mavjud. Demak, jamiyat (makrokosm, butun) bilan ekologik madaniyat uyg'unligining birinchi kosubstantsional asosi makrokosm (jamiyat, butun) beradigan ritm, beoromlikdadir.

"Kosubstantsional" so'zi narsa va hodisalar asosini juft ko'rish, yonma-yon keluvchi asos, negiz degan ma'nolarni anglatadi. Unda narsa va hodisalar mushtarak, aynan bo'lishi shart emas, ammo ular bir biriga yaqin ikki negizga tayanishi lozim. Ba'zan kosubstantsional yondashuv ikki narsalarni, hodisalarni umumlashtiruvchi, bir

biriga yaqin tarzda o‘rganuvchi usul sifatida ham ishlatiladi. Qanday bo‘lmasin, kosubstantsionallik ikki narsa va hodisalar negizlarini yonma-yon o‘rganish usuli sifatida keladi.

Xo‘sh, jamiyat va ekologik madaniyat uyg‘unligining kosubstantsional asoslari nimalardan iborat? Yuqorida keltirilgan O.Shpengler ko‘rsatgan makrokosm ritmi, uni mikrokosm sezishi, idrok etishi umumiy asos bilishi mumkin. Ulardan boshqa yana qanday asoslar mavjud? Mazkur kosubstantsional asoslarni biz quyidagi vazifalarda deb bilamiz.

1. Jamiyat bilan ekologiya makrokosm qonunlariga muvofiq aloqalarga kirishadi va falsafiy-transtsentental idrokdan o‘ziga nazariy asos topadi.

2. Jamiyatning ekologik madaniyati falsafiy-transtsendental idrokning obiektivlashgan ko‘rinishi, ijtimoiy ekologik muammolarga ma’lum bir yechim tarzida keladi.

3. Jamiyat ekologik madaniyatning ham subiekti ham obiekti, ham sababi ham oqibati, ham deterministik omili ham ekzistentsial natijasidir.

4. Jamiyat ekologik madaniyat va ekologik omillar mahsuli emas, biroq uning perspektiv taraqqiyoti ular bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy, antropologik va texnogen muammolarni ratsional hal etishga bog‘liqdir.

5. Ekologik madaniyatni yuksaltirishdan nafaqat aholi, kishilar shuningdek, butun jamiyat, davlat, siyosat manfaatdor bo‘lishi, bu borada ular bor imkoniyatlarini ishga solishi muhimdir.

6. Ekoma’rifiy (ekomadaniy) jamiyat barpo etishga strategik maqsad sifatida qaralishi lozim.

7. Ekohuquqiy davlatdan ekoma’rifiy, ekomadaniy taraqqiy etgan davlatga o‘tish kontseptsiyasini shakllantirish, bu boradagi tarixiy-madaniy tajribalardan foydalanish zarur.

Jamiyat bilan ekologik madaniyat o‘rtasidagi uyg‘unlikning birinchi kosubstantsional asosi makrokosm bilan bog‘liq muammolarni falsafiy-transtsendental idrok etishdadir. Makrokosm, borliq inson aqlu idroki, bilimi va dunyoqarashlaridan keng. U inson va uning madaniyatiga nisbatan birlamchi, cheksiz, anglanmagan. Ushbu mahobatli borliqqa xos jihatlar va xususiyatlarni aniq metod yoki ilmiy yondashuv bilan anglash qiyin, bu o‘rinda falsafiy-transtsendental idrok kerak. Falsafiy-transtsendental idrokni I.Kant iste'molga kiritgan bo‘lib, u tajribaga bog‘liq tarzda murakkab, bepoyon borliqni anglash usulidir [5]. Transtsendental' idrokni transtsendent bilan aynanlashtirmaslik kerak, keyingisi tajribadan tashqaridagi, bilimdan oldin keladigan voqelikdir [6]. Falsafiy-transtsendental idrok ekoborliqni ilmiy anglash orqali shaxsda tabiiy olamga, yon atrofga, o‘zining mavjudligiga, xullas, ekoborliqqa falsafiy qarashni ifoda etadi. Bu borliqni to‘la anglash mumkin emas, ammo uning barqarorligi, abadiyligi, mutlaq tartiblari borligi inson idrokidan tashqaridadir. Inson ularni faraz, xayoliy tasavvur, taxmin qila oladi xolos. Aqlu idrokning cheklanganligi, ekoborliq oldidagi ojizligi insonning bilish, anglash, idrok qilish erkiga tajovvuz qilmaydi. Inson bu kamchiliklarini bilsa, ularning chin boisini anglasa, ekoborliq mahobatini tan olsa, u ekomadaniyat uchun zarur falsafiy-transtsendental idrokka ega bo‘ladi. Ha, bu metafizik mushohadalar in'ikosidir, lekin har qanday falsafiy yondashuv pirovard natijada metafizik mushohadalarga aylanadi. Mana, jamiyat bilan ekologik madaniyat o‘rtasidagi uyg‘unlikning birinchi kosubstantsional asosi nimada.

Jamiyatning ekologik madaniyati falsafiy-transtsendental idrokning obiektivlashgan ko‘rinishi, insonning ekoborliqni ilmiy anglashdagi intilishlari, tajribalari yig‘indisidir. Yuqorida aytganimizdek, transtsendental' idrok tajribaga, bilimga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan jamiyatning ekologik madaniyati, ekoborliqqa munosabati falsafiy-transtsendental idrokka muhtoj. Jamiyatning ekologik madaniyati pirovard natijada falsafiy-transtsendental idrokning obiektivlashgan ko‘rinishi sifatida

ham keladi. Obiektivlashishga intilish barcha metafizik va falsafiy-trantsendental idrok shakllariga xos jihat emas, ammo ekologik madaniyatning real hayot, kishilarning tabiatga munosabati, inson-jamiyat-tabiat tizimining immanent xususiyatlari sifatida kelishi falsafiy-transtsendental idrokni obiektivlashishni shart qilib qoʻyadi.

Ekoborliqni anglash ma’lum bir idrokka, bilish usullariga va gnoseologik tajribalarga tayanadi. Jamiyatning ekologik madaniyati ularning kvintessentsiyasi sifatida keladi. Biroq u, ya’ni ekologik madaniyat inson va jamiyat sa’y-harakatlarining mahsulidir. Ekoborliqni koʻrish, anglashga intilish, ma’lum bir metafizik mushohadalar, tasavvurlar uygʻotish bilan ekologik madaniyat shakllanmaydi. Demak, falsafiy – transtsendental idrokning jamiyat va inson faoliyatida, hayoti va ijtimoiy munosabatlarida obiektivlashishi ekologik madaniyat eng muhim belgisidir[7]. Ekologik madaniyat ma’lum bir sotsiumda, oʻz talablari va tartiblariga ega jamiyatda, ijtimoiy makonda shakllanadi. Shu nuqtai nazardan jamiyat ekologik madaniyatning ham subiekti ham obiekti, ham sababi ham oqibati, ham determistik omili ham ekzistentsial natijasidir. Jamiyatning ekologik madaniyatning subiekti va obiekti ekani keyingi yillardagina e'tirof etilmoqda, bu avvalo demokratik oʻzgarishlar va inson huquq va erkinliklari haqidagi liberal gʻoyalarning keng tarqalishi bilan bogʻliqdir. Jamiyat ongli individlar, guruhlar va jamoalarning ijtimoiy uyushmasi sifatida oʻzi uchun zarur imperativlarni, qadriyatlar va tartiblarni qabul qiladi. Ekologik madaniyat ana shu sa’y-harakatlar ifodasidir. Agar jamiyat ekologik madaniyatga befarq boʻlsa, u sotsiobioekologik muammolarni yo ilgʻamayotgan yoki ularni tan olmayotgan boʻladi. Lekin sotsiobioekologik muammolardan mutlaq xoli jamiyat uchramaydi, bu ijtimoiy taraqqiyot, jamiyat rivoji qonunlariga ziddir. Jamiyat va ekologik madaniyatning uygʻunligi kishilarni ekologik muammolarga faol munosabatda boʻlishga undaydi. Hatto ular, jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirisha oid dastur, kontsetsiya qabul qilinmagan boʻlsa ham, oʻzining hayotiy

faoliyatida tabiat, yon-atrof, fauna va flora bilan qandaydir munosabatlarga kirishib yashashi zarurligini anglab, bilib turadilar.

Xulosa qilib aytganimizda, ekologik madaniyat sof amaliyot yoki sof nazariya sifatida kelmaydi, u turli ijtimoiy voqeliklar, qarashlar, tarbiyaviy-ma'rifiy va siyosiy yondashuvlar bilan aralashib keladi. Natijada u turli voqeliklarning integratsiyalashuvi mahsuliga aylanadi. Sotsiobioekoborliqning universal xususiyati ekologik madaniyatga ta'sir etib, uni ham universal yoki kompleks voqelik, nazariya va amaliyot uyg'unligi bo'lishini taqozo etadi [8]. Ko'rinib turibdiki, jamiyatning ekologik madaniyati kompleks va murakkab xususiyatlarga ega ijtimoiy hayotning o'ziga xos ham ifodasi, ham pirovard natijasidir. Shu bilan birga, tadqiqotchi uni ushbu kompleks va murakkab hodisalardan, ilmiy maqsadlariga muvofiq, ajratib olishga, o'rganishga majbur. Biroq bu unga jamiyat ekologik madaniyatining kosubstantsional asoslarini izlashga xalaqit bermaydi, balki shu tarzda sotsiobioekomuammolarga samarali ilmiy yechimlar topishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

Xajieva M.S. Jamiyat va inson falsafasi. – Toshkent Lesson Press, 2021.

Шпенглер О. Закат Европы. Том 2. Всемирно-исторические перспективы. – Минск: Попурри, 1999; Тойнби А. Постижение истории. - Москва: Прогресс, 1990

Шпенглер О. Закат Европы. Том 2. Всемирно-исторические перспективы. – Минск: Попурри, 1999. С.6.

Шпенглер О. Закат Европы. Том 2. Всемирно-исторические перспективы. – Минск: Попурри, 1999. С.8.

Кант И. Сочинения в шести томах. Том 3.- Москва: Мисль, 1964. С. 338

Лега В. История западной философии. Часть 11. Новое время. Современная западная философия. – Москва: Литрес, 2022. С.202-243

Глазечев С.Н. Экологическая культура. Исследования и разработка экогуманитарной парадигмы. - Москва: Наука, 1998. С. 34-46: Дорошко О.М. Формирование экологической культуры как цель образования для устойчивого развития. – Гродно: ГрГУ им. Я.Купали, 2010. С. 126-132; Амрнлаев А. Экологическая культура человека и ее особенности// Ж. Тарих ва жамият, 2021, № 1. 8 б

Молофеев В.И. Социальная экология. Москва: Интер М., 2003; Петров К.М. Общая экология. – Москва: Астра, 1998; Новиков Ю.В. Экология, окружающая среда и человек. Учебное пособие. – Москва: ФАИР ПРЕСС, 2005; Икрамов Э.Ж., Хатомов А.А. Шахснинг экологик маданияти. – Тошкент: Ибн Сино номидаги мед.нашр., 2001